

## **QISSA JANRI UCHUN YANGI OVOZLARNING USLUB, POETIKA VA JANR TRANSFORMATSIYALARI**

**Tabassumxon Mo'minova Siddiqjonovna**

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi, f.f.f.d(PhD)

**Nilufar Yuldasheva Odilovna**

Akademi international school maktabi o'qituvchisi

email: [yuldashevanilufar458@gmail.com](mailto:yuldashevanilufar458@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada o'zbek adabiyotshunosligida qissa janrining kelib chiqishi, janr xususiyatlari, yangilanish tamoyillari, qissalarda badiiy nutq, uslub poetikasi haqida nazariy ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** qissa janri, manba, mavzu, qahramonlar toifasi, bayon uslubi, yangilanish tamoyillari.

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье даны теоретические сведения о происхождении жанра рассказа в узбекском литературоведении, особенностях жанра, принципах обновления, художественной речи в рассказах, поэтике стиля.*

**Ключевые слова:** жанр рассказа, источник, тема, категория героев, стиль повествования, принципы обновления.

### **ABSTRACT**

*This article provides theoretical information about the origin of the short story genre in Uzbek literary studies, genre features, principles of renewal, artistic speech in short stories, poetics of style.*

**Key words:** narrative genre, source, theme, category of heroes, narrative style, principles of renewal.

### **KIRISH**

Dunyo adabiyotshunosligida XX asr o'rtalaridan boshlab romandan keyingi yetakchilik qilgan qissa janrida ham voqelik, inson ruhiyatini chuqur tahlil qilish, hayot mohiyatini anglatishga ko'proq ahamiyat berildi. Ushbu janrda yaratilgan asarlarning tuzilishi, obrazlari, konflikt, psixologik tahlil, badiiy-tasviriy vositalari hamda mavzular ko'lamining kengligi janrning yangilanish tamoyillarini belgilab beradi. Tabiiyki, bu hozirgi adabiy jarayon, badiiy asarga to'g'ri yondashuv, nasrning qissa janri va uning badiiyati to'g'risida tushunchaga ega bo'lish adabiyotshunoslikda o'ziga xos nazariy bilim va ko'nikma zaruratini yuzaga keltiradi.

O'zbek adabiyotshunosligida bugungi globallashuv davrida jamiyat tafakkuridagi o'zgarishlarning bevosita aksi sifatida barcha janrlar singari qissa janridagi yangilanish tamoyillari, badiiy nutq va uslub poetikasi masalalari, ijodkorlarning uslubiy o'ziga xosliklarini o'rganish muhimligini ko'rsatadi.

XX asrning 70-80-yillarida qissa janri jadal taraqqiy etdi. N.Aminov, S.Siyoyev, Sh.Xolmirzayev, O'.Hoshimov singari taniqli adiblar safidan E.A'zamov, M.M.Do'st, T.Murod, X.Do'stmuhammad, X.Sultonov, G'.Hotamov, A.Saidov, B.Murod Ali, Sh.Bo'tayevlar ham munosib o'rin oldilar. Ular o'z ijod namunalari bilan zamonaviy o'zbek qissachiligiga o'ziga xos mavzu, qahramon, talqin hamda konsepsiyalarni olib kirdilar.

O'zbek qissachiligi o'zining ma'lum taraqqiyot bosqichlariga ega. Masalan, 60-yillarda yaratilgan qissalar hamda 70-80-yillardagi qissalar va ularda ko'tarilgan muammolar bir-biridan farqlanadi. 60-yillar qissachiligida (masalan, P.Qodirovning "Erk", "Qadrim", "Meros") ichki kechinmalar, oilaviy munosabatlar tasvirlangan bo'lsa, 70-yillarda inson va uning xulqatvori, ruhiyati, dunyoqarashi har xil bo'lgan badiiy qahramonlar qalamga olindi. Qissalarning tasvirlash obyekti o'zgarib, yangicha yo'nalish yuzaga keldi. Qissanavis obrazi asar voqea-hodisalar tasvirida yetakchi o'rinni egalladi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Zamonaviy o'zbek adabiyotida yozuvchilar tomonidan badiiy asarga tanlab olingan makon va zamon, mavzu, asar qahramonlari hamda ularni tasvirlash bayon uslublari hozirgi o'zbek adabiyotida qissa janrining yangilanish tamoyillarini belgilashda qiyoslash imkonini beradi. Buni quyidagi jadval yordamida yaqqolroq tasavvur qilish mumkin:

### **JADVAL**

| Manbasi                                                    | Mavzu                                                | Qahramonlar toifasi                                             | Bayon uslubi                                       |
|------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------|
| Qur'oni Karimda                                            | Ilohiylik                                            | Payg'ambarlar, sahobalar                                        | Ilohiy habarlar                                    |
| Xalq og'zaki ijodida                                       | Qahramonlik                                          | Pahlavonlar                                                     | Bo'rttorish;<br>Sifatlash;<br>Hayolotga erk berish |
| Mumtoz Adabiyotida                                         | Qahramonlik                                          | Darveshlar, zohidlar                                            | Romantizam; tarixiylik                             |
| XX asr o'zbek adabiyotida (asr boshlaridan 80-yillargacha) | ilmsizlik;<br>urush;<br>mehnat;<br>kolxoz qurilishi. | mehnatkashlar;<br>ziyolilar;<br>ishbilarmonlar;<br>mansabdorlar | Realizm                                            |

|                                                       |                                                                         |                                                     |                                    |
|-------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------|------------------------------------|
| Hozirgi o'zbek adabiyotida (XX asrning 80-90-yillari) | ijtimoiy-maishiy; zamonaviy voqelikning badiiy in'ikosi; tabiat; bozor; | dehqonlar; paxtakorlar; oddiy odamlar; yangi inson. | realizm; modernizm                 |
| Yangi asrning 20-yili                                 | ong oqimi, o'z-o'zini tahlil qilish, islomiy qadriyatlar                | ziyoli, yosh avlod, e'tiqodli inson, munis ayol     | an'anaviy, sharqona, postmodernizm |

Ushbu jadval asar yaratilgan davr hamda yozuvchilarning o'ziga xos uslublariga ko'ra nisbiylik xususiyatiga ega bo'lib, uni to'ldirish va takomillashtirish ham mumkin.

XX asr oxirlarida ijtimoiy-siyosiy jarayonda yuz bergan o'zgarishlar ijodkor dunyoqarashiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Bu ta'sir o'zbek adabiyotining qissa janrida ham o'z ifodasini topgan. Jumladan, o'tgan asrning 80-90-yillari o'zbek qissanavisligi tarixida yangilanish davri bo'ldi. Rivojlanishdagi bunday o'zgarish va tajribalar o'ziga xos uslublarning namoyon bo'lishi, qissanavislikning yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilishi, qissanavislikda olamni idrok etish va badiiy qayta gavdalantirish hozirgi o'zbek adabiyotida qissa janrining yangilanish tamoyillarini belgilaydi.

Biz hozirgi o'zbek adabiyotida qissaning yangilanish tamoyillarini tadqiqotimiz obyekti bo'lgan ikki yozuvchi asarlari misolida quyidagicha belgilashni lozim topdik:

**–insonning fe'l-atvorini boricha aks ettirish:**

(Erkin A'zam "Otoyining tug'ilgan yili"; Xurshid Do'stmuhammad "Hijronim mingdir mening", "Men – sensiz, sen – mensiz" );

**–inson ruhiyatidagi murakkabliklarni tadqiq etish:**

(Erkin A'zam "Bayramdan boshqa kunlar"; Xurshid Do'stmuhammad "Nigoh", "Panoh", "Chayongul yoxud quyiqlik qotillik");

**–yangi inson obrazini tadqiq etishda jahon adabiyoti an'alarini sintez qilish:**

(Erkin A'zam "Javob"; Xurshid Do'stmuhammad "Kuza");

**–inson va jamiyat o'rtasidagi muammolarni piching va kinoya usulida ochib berish;**

(Erkin A'zam "Shoirning to'yi", "Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati"; Xurshid Do'stmuhammad "Yolg'iz");

**–inson qalbidan o'tayotgan kechinmalarni shartlilik, ramziylik, majoziylik usullarida aks ettirish:**

(Erkin A'zam "Pakananing oshiq ko'ngli", "Guli-guli"; Xurshid Do'stmuhammad "So'roq", "Katta ko'cha").

Hozirgi davrda Murod Muhammad Do'st, Tog'ay Murod, Erkin A'zamov, Xurshid Do'stmuhammad, Nazar Eshonqul, Shoyim Bo'tayev kabi iste'dodli qalamkashlar qissa janrida samarali ijod qilib kelmoqdalar. Ularning asarlari o'zbek nasrini ham sifat, ham son jihatdan boyitish imkonini bermoqda. Ijodkorlar o'z qissalarida davrning dolzarb muammolarini ko'tarib chiqdilar. Uslubiy yo'nalishlari, ijodlari g'oyaviy o'ziga xosliklari bilan bir-birlaridan farqlanib turadigan yozuvchilarimiz asarlari qissa janrining shu davrdagi ijtimoiy-badiiy faolligini va individualligini ko'rsatadi.

Hozirgi o'zbek qissanavisligida jahon adabiyotining qissachilikdagi noan'anaviy ijodiy tajribalaridan mohirona foydalanib kelinmoqda. Buning ta'sirida hozirgi o'zbek qissachiligi janr va badiiy-uslubiy jihatdan turli xil ko'rinishlarga ega bo'ldi. Uslubiga ko'ra an'anaviy realistik qissalar va noan'anaviy modern qissalar vujudga keldi. Natijada, "qissa janri tabiatida janrlar sinkretizmi yuz berdi. Masalan, kinoqissa, hikoyaqissa, novellaqissa, qissaetyud, maktubqissa, esse-qissalar paydo bo'ldi. Bir janrning ikkinchi janr tomonga og'ish holatlari kuzatildi, masalan, qissada roman kurtaklari yoki romanda qissa unsurlari paydo bo'ldi". O'zbek adabiyotidagi qissa janriga miqdori, sifati va salmog'i jihatidan e'tibor berilsa, 2010-yilning o'zida "Sharq yulduzi" va "Yoshlik" jurnallarida 20 ga yaqin qissa e'lon qilinishi, bu janrga alohida e'tibor qaratilganining guvohi bo'lish mumkin. Mazkur rivojlanish jarayoni adabiyotshunoslik fanining ham bu janrda yuz berayotgan o'zgarishlar hamda yangilanishlar bo'yicha muhim tadqiqotlar olib borishni taqozo etayotir.

Adabiyotdagi har bir janr, jumladan, qissachilik zamon va makon ta'sirida shakllanib boradi. Shuningdek, har bir so'z san'atkori ham muayyan davr, muhit, tarixiy sharoit farzandidir. Uning shaxsiy xarakteriga doir chiziqlar, qiyofasini belgilovchi omillar shu tariqa paydo bo'ladi. Darhaqiqat, har bir san'atkor "ijodining qimmatini uning sof shaxsiy kechinmalari tasviri bilan emas, balki zamonasining ijtimoiy jihatdan muhim hodisalarini o'zining shaxsiy tarjimai holi faktiga aylantira olishi bilan belgilanadi".

## **XULOSA**

O'zbek adabiyotida qissa janri uzoq tarixga ega bo'lib, o'rta asrlardagi "xalq kitoblari" kabi yozma manbalar zamonaviy qissa janri uchun asosiy manba, tajriba maktabi vazifasini o'tadi. Zamonaviy o'zbek adabiyoti qissachiligidagi yangilanishlar, qissalardagi qamrov ko'lamining kengligi, shakl va mazmundagi o'ziga xos rang-barangliklar bilan badiiy-estetik jihatdan taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi.

Bugungi kunga kelib, o'zbek adabiyotida qissa janri badiiylik, ma'no-mazmun hamda uslub jihatdan yanada takomillashdi. XX asr boshlarigacha yaratilgan qissalarda asosan, anbiyo, darveshsifat pahlavon, shohlar holati, mazkur davrning

qahramonlari hayoti ifodalangan bo'lsa, keyinchalik real voqea-hodisalar, oddiy kishilar hayoti, o'tmishdagi qora kunlardan farqli o'laroq kelajak umidlari aks ettirila boshlandi. Qaysi davr bo'lmasin, qaysi tur va janrda asar yaratilmasin, ayni davrning ijtimoiy-siyosiy holati ta'siri kuzatiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Эшматова Ю. Истиқлол даври ўзбек қиссачилигида аёл руҳиятининг бадий талқини. Филол. фанл. бўйича фалсафа доктори (Phd) диссертацияси автореферати – Тошкент, 2020.
2. Жўраев Х. Лирик қаҳрамон ва муаллиф шахсияти. – Тошкент: Фан, 2008. Мо'minoва Т. Hozirgi o'zbek qissalarida badiiy nutq va uslub poetikasi. Filol. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Farg'ona, 2023. 138bet.